

Environmental and Social Impact Assessment

PUBLIC

Project Number: 58290-001
Draft
August 2024

Uzbekistan: Samarkand 1 Solar PV and BESS Project

Appendixes – Part 17

Prepared by ACWA Power for the Asian Development Bank (ADB).

This environmental and social impact assessment report is a document of the borrower. The views expressed herein do not necessarily represent those of ADB's Board of Directors, Management, or staff, and may be preliminary in nature. Your attention is directed to the [“terms of use”](#) section of ADB's website.

In preparing any country program or strategy, financing any project, or by making any designation of or reference to a particular territory or geographic area in this document, ADB does not intend to make any judgments as to the legal or other status of any territory or area.



ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI PREZIDENTINING QARORI

2023 yil « 4 » июль

№ПК–208

“Самарқанд вилоятининг Нуробод туманида қуввати 500 МВт бўлган қуёш фотоэлектр станциясини, қуввати 334 МВт бўлган электр энергиясини сақлаш тизимини ҳамда унинг фаолиятини таъминлашга хизмат қилувчи подстанцияни қуриш (Sazagan Solar 2)” инвестиция лойиҳасини амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида

Аҳолини ва иқтисодиёт тармоқларини энергия ресурслари билан барқарор таъминлаш, электр энергияси ишлаб чиқаришда табиий газдан фойдаланишни камайтириш ҳамда қайта тикланувчи энергия манбаларидан фойдаланиш кўламини кенгайтиришга тўғридан-тўғри хорижий инвестицияларни кенг жалб қилиш мақсадида:

1. Қуйидагилар:

а) **“ACWA Power Company (Saudi Listed Joint Stock Company)”** (Саудия Арабистони) компанияси томонидан (кейинги ўринларда — Инвестор) “Самарқанд вилоятининг Нуробод туманида қуввати 500 МВт бўлган қуёш фотоэлектр станциясини, қуввати 334 МВт бўлган электр энергиясини сақлаш тизимини ҳамда унинг фаолиятини таъминлашга хизмат қилувчи подстанцияни қуриш (Sazagan Solar 2)” инвестиция лойиҳаси (кейинги ўринларда — Инвестиция лойиҳаси) доирасида Ўзбекистон Республикасида масъулияти чекланган жамият шаклидаги “ACWA Power Sazagan Solar 2” хорижий корхонаси (кейинги ўринларда — Лойиҳа компанияси) таъсис этилганлиги;

б) Ўзбекистон Республикаси Ҳукумати номидан Инвестициялар, саноат ва савдо вазирлиги, Инвестор ва Лойиҳа компанияси ўртасида **2023 йил 19 апрелда инвестиция битими** (кейинги ўринларда — Инвестиция битими) имзоланганлиги ҳамда унга мувофиқ Инвестор ва Лойиҳа компанияси:

Инвестиция лойиҳасини амалга оширишнинг бутун даври мобайнида Самарқанд вилоятининг Нуробод туманида қуввати 500 МВт бўлган қуёш фотоэлектр станциясини, қуввати 334 МВт бўлган электр энергиясини сақлаш тизимини лойиҳалаштириши, молиялаштириши, қуриши ҳамда эксплуатация қилиши;

юзага келиши мумкин бўлган хавф-хатарларни ўз зиммаларига олган ҳолда, дастлабки баҳолаш бўйича жами **1 049 млн АҚШ доллари** миқдорида **тўғридан-тўғри хорижий инвестицияларни** жалб этиши;

в) “Ўзбекистон миллий электр тармоқлари” АЖ ва Лойиҳа компанияси ўртасида **2023 йил 19 апрелда Электр энергиясини сотиб олиш тўғрисида битим** (кейинги ўринларда – Электр энергиясини сотиб олиш тўғрисидаги битим) имзоланганлиги ҳамда унга мувофиқ;

Лойиҳа компанияси ишлаб чиқарилган электр энергиясини “Ўзбекистон миллий электр тармоқлари” АЖга **кафолатланган тарзда сотиш** мажбуриятини олиши;

Лойиҳа компанияси қурилиш давридаги ўз мажбуриятлари лозим даражада бажарилишининг таъминоти сифатида **30 млн АҚШ доллари** миқдорида биринчи даражали хорижий **банк кафолатини** тақдим этиши;

Инвестиция лойиҳаси доирасида фотоэлектр станциясини ягона электр энергияси тармоғига улаш учун подстанция ва ҳаво электр узатиш тармоқлари **Лойиҳа компанияси томонидан қурилиши** ҳамда ишга туширилгандан сўнг Лойиҳа компанияси уларни “Ўзбекистон миллий электр тармоқлари” АЖга топшириш мажбуриятини олиши;

фотоэлектр станциясини ягона электр энергияси тармоғига улаш учун подстанция ва ҳаво электр узатиш тармоқлари Лойиҳа компанияси томонидан қурилиши ҳамда ушбу ишлар учун **сарфланган харажатлар “Ўзбекистон миллий электр тармоқлари” АЖ томонидан 10 йил давомида ойлик тўловлар асосида қопланиши;**

Инвестиция лойиҳаси доирасида қуввати 334 МВт бўлган электр энергиясини сақлаш тизими Лойиҳа компанияси томонидан қурилиши ҳамда ишга туширилгандан сўнг Лойиҳа компанияси унинг иш режимини Энергетика вазирлиги ҳузуридаги **“Миллий диспетчерлик маркази” ДУКнинг диспетчерлик бошқаруви билан мувофиқлаштириш мажбуриятини ўз зиммасига олиши;**

“Ўзбекистон миллий электр тармоқлари” АЖ 25 йил давомида электр энергиясини кафолатланган тарзда харид қилиш мажбуриятини олиши ва электр энергияси учун тўловни миллий валютада амалга ошириши маълумот учун қабул қилинсин.

2. Инвестиция лойиҳасини амалга ошириш доирасида:

Ўзбекистон Республикаси Ҳукумати номидан Инвестициялар, саноат ва савдо вазирлиги, Инвестор ва Лойиҳа компанияси ўртасида имзоланган **Инвестиция битими тасдиқлансин;**

“Ўзбекистон миллий электр тармоқлари” АЖ ва Лойиҳа компанияси ўртасида тузилган Электр энергиясини сотиб олиш тўғрисидаги битим маъқуллансин.

3. Инвестиция битими ва Электр энергиясини сотиб олиш тўғрисидаги битимга мувофиқ уларнинг амал қилиш муддати давомида электр энергиясининг сотиб олиниши, электр энергиясини сақлаш тизимининг фойдаланишга тайёр ҳолати учун ва ҳаво электр узатиш тармоқларини қуришга сарфланган харажатлар бўйича тўловлар чет эл валютасида деноминацияланган қатъий тариф бўйича амалга оширилиши белгилаб қўйилсин.

4. Инвестициялар, саноат ва савдо вазирлиги, Энергетика вазирлиги ҳамда “Ўзбекистон миллий электр тармоқлари” АЖга Лойиҳа компанияси томонидан Инвестиция лойиҳасини амалга ошириш доирасида имзоланган битимлар бўйича мажбуриятлар бажарилмаган тақдирда, Лойиҳа компанияси ва Инвестор ҳуқуқини Инвестиция лойиҳасини молиялаштиришда иштирок этадиган бошқа кредиторларга тўғридан-тўғри ўтказиш юзасидан битимлар тузиш ҳуқуқи берилсин.

5. “Ўзбекистон миллий электр тармоқлари” АЖга:

Лойиҳа компанияси билан биргаликда Электр энергиясини сотиб олиш тўғрисидаги битимда белгиланган тартиб-таомилларга мувофиқ Инвестиция лойиҳасини амалга ошириш учун **халқаро мустақил инжиниринг компаниясини ва бошқа маслаҳатчиларни мажбурий экспертиза ўтказмаган ҳолда танлаб олишга ҳамда улар билан шартномалар тузишга;**

Лойиҳа компанияси томонидан ишлаб чиқариладиган электр энергиясини уч ой мобайнида сотиб олиш **мажбурияти бажарилишининг таъминоти сифатида** Лойиҳа компанияси фойдасига чет эл банкининг чет эл валютасида тасдиқланган ва тикланадиган **аккредитивини очишга рухсат берилсин.**

6. Иқтисодиёт ва молия вазирлиги Ўзбекистон Республикаси Ҳукумати номидан “Ўзбекистон миллий электр тармоқлари” АЖнинг аккредитив очадиган хорижий банк олдидаги тўлов мажбуриятлари Осиё тараққиёт банки, Жаҳон банки ёки Европа тикланиш ва тараққиёт банки кафолати орқали бажарилган тақдирда, ушбу банк билан Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматига мақбул шаклдаги ушбу банк харажатларини қоплаш тўғрисидаги битимни имзолаш ваколати берилсин.

7. Инвестиция лойиҳасини амалга ошириш доирасида **Лойиҳа компаниясига**, барча солиқлар ва йиғимлар тўланган ҳолда, Инвестиция лойиҳасини молиялаштириш доирасида **қўйидаги ҳуқуқлар берилсин:**

кредит олиш, чет эл валютасида пул маблағлари олиш ва улардан фойдаланиш (шу жумладан чет эл валютасида кредит тушумлари) учун **чет эллардаги хорижий банкларда банк ҳисобварақлари очиш;**

Ўзбекистон Республикасидан ташқарида бўлган хорижий пудрат ташкилотлари, етказиб берувчилар ёки хорижий кредиторларга тўловларни **Ўзбекистон Республикасидаги банк ҳисобварақлари орқали ўтказмасдан, тўғридан-тўғри амалга ошириш.**

8. Инвестиция лойиҳаси доирасида фотоэлектр панелларини ўрнатиш билан боғлиқ **қурилиш ва ер ишларини бажариш, бино ва иншоотлар пойдеворларини лойиҳалаштириш нормалари ва қоидалари** Электр энергиясини сотиб олиш тўғрисидаги битим қоидаларига мувофиқ **халқаро стандартлар билан тартибга солиниши белгилаб қўйилсин.**

9. Қишлоқ хўжалиги вазирлиги, Сув хўжалиги вазирлиги, Инвестициялар, саноат ва савдо вазирлиги, Самарқанд ва Бухоро вилоятлари ҳокимликларининг Инвестиция лойиҳасини амалга ошириш учун ажратиладиган Самарқанд ва Бухоро вилоятларидаги иловага мувофиқ **1 062 гектар** ер участкасини **қишлоқ хўжалигига мўлжалланган ерлар тоифасидан саноат ва бошқа мақсадларга мўлжалланган ерлар тоифасига ўтказиш** тўғрисидаги таклифига розилик берилсин.

10. Самарқанд, Жиззах, Сирдарё, Тошкент ва Бухоро вилоятлари ҳокимликлари **бир ой муддатда** Инвестиция битими ва Электр энергиясини сотиб олиш тўғрисидаги битимда кўрсатилган шартларга мос келадиган қуёш фотоэлектр станцияси, электр энергиясини сақлаш тизими ва уларнинг фаолиятини таъминлашга хизмат қилувчи подстанция ҳамда қуриладиган ҳаво электр узатиш тармоқлари учун **зарур бўлган ер участкаларини Энергетика вазирлигига доимий фойдаланиш ҳуқуқи билан ажратилишини таъминласин.**

Бунда:

а) Энергетика вазирлиги мазкур бандга асосан ўзига берилган **тегишли ер участкаси:**

қуёш фотоэлектр станцияси ва электр энергиясини сақлаш тизимини қуриш учун Инвестиция лойиҳасини амалга ошириш муддатига тенг даврга **Лойиҳа компаниясига;**

подстанция ва ҳаво электр узатиш тармоқларини қуриш учун **“Ўзбекистон миллий электр тармоқлари” АЖга ижарага берилишини таъминласин;**

б) Инвестиция лойиҳасини амалга ошириш доирасида:

Энергетика вазирлиги қишлоқ хўжалигига мўлжалланган ерлардан фойдаланганлик учун **қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқариши нобудгарчилиги ўрнини қоплашдан** (компенсация тўловларидан) **озод қилинсин;**

Лойиҳа компанияси томонидан ер участкалари учун тўланадиган **ижара тўлови миқдори ер солиғи миқдорига тенглаштирилсин.**

11. Лойиҳа компаниясининг буюртманомасига биноан:

Ташқи ишлар вазирлиги – Инвестиция лойиҳасини амалга ошириш доирасида жалб қилинадиган хорижий мутахассислар учун кириш визалари, зарур ҳолларда, Ислом Каримов номидаги “Тошкент” халқаро аэропортида белгиланган тартибда расмийлаштирилишини (муддати узайтирилишини);

Ички ишлар вазирлиги – Лойиҳа компанияси ва Инвестиция лойиҳаси доирасида жалб қилинган пудрат ташкилотларининг хорижий мутахассислари ҳамда уларнинг оила аъзоларига кўп марталик виза муддатлари узайтирилишини, шунингдек, вақтинча турган жойи бўйича рўйхатга олиниши ва унинг муддати узайтирилишини;

Камбағалликни қисқартириш ва бандлик вазирлиги – хорижий фуқароларга Ўзбекистон Республикаси ҳудудида меҳнат фаолияти билан шуғулланиш ҳуқуқини берувчи тасдиқномалар белгиланган тартибда берилишини (муддати узайтирилишини) таъминласин.

12. Инвестициялар, саноат ва савдо вазирлиги Инвестиция лойиҳаси амалга оширилиши, шунингдек, томонларнинг Инвестиция битими ва Электр энергиясини сотиб олиш тўғрисидаги битим доирасидаги **мажбуриятларини бажариши устидан доимий назорат ўрнатсин.**

13. Адлия вазирлиги Инвестиция лойиҳасини амалга ошириш доирасида Инвестиция битими ҳамда унинг қоидаларига мувофиқ имзоланган битимлар юзасидан юридик хулосалар берсин.

14. Экология, аτροφ-муҳитни муҳофаза қилиш ва иқлим ўзгариши вазирлиги лойиҳа ҳужжатлари белгиланган тартибда экологик экспертизадан ўтказилишини ва Инвестиция лойиҳасини амалга оширишда табиатни муҳофаза қилишга оид қонунчилик ҳужжатларига риоя этилишини таъминласин.

15. Мазкур қарорнинг ижросини самарали ташкил этишга **масъул ва шахсий жавобгар** этиб энергетика вазири **Ж.Т.Мирзамаҳмудов** белгилансин.

Қарор ижросини ҳар чорақда муҳокама қилиб бориш, ижро учун масъул идоралар фаолиятини мувофиқлаштириш ва назорат қилиш Ўзбекистон Республикасининг Бош вазири А.Н.Арипов зиммасига юклансин.

**Ўзбекистон Республикаси
Президенти**



Ш. Мирзиёев

Тошкент шаҳри

Ўзбекистон Республикаси Президентининг
2023 йил 4 июлдаги ПҚ–208-сон қарорига
илова

“Самарқанд вилоятининг Нуробод туманида қуввати 500 МВт бўлган қуёш фотоэлектр станциясини, қуввати 334 МВт бўлган электр энергиясини сақлаш тизимини ҳамда унинг фаолиятини таъминлашга хизмат қилувчи подстанцияни қуриш (Sazagan Solar 2)” инвестиция лойиҳасини амалга ошириш доирасида қишлоқ хўжалигига мўлжалланган ерлар тоифасидан саноат ва бошқа мақсадларга мўлжалланган ерлар тоифасига ўтказилаётган ер участкалари РЎЙХАТИ

Худуд номи	Контур рақами	Жами ер участкаси майдони (гектар)	Шундан, лалми ерлар, яйловлар ва пичанзорлар (гектар)
Фотоэлектр станцияни қуриш учун			
Самарқанд вилояти Нуробод тумани (Олға массиви)	506қ-507қ-509қ-531қ-932қ-933қ-934қ-935қ-936-937қ-938қ-1000қ-1001қ-1002қ	994	994
Янги қуриладиган подстанция учун			
Самарқанд вилояти Пастдарғом тумани (Дўстлик-3 массиви)	56 қ, 57 қ	35	35
Янги қуриладиган электр энергиясини сақлаш тизими учун			
Бухоро вилояти Қоракўл тумани	2474 қ	33	33
Жами		1062	1062



№ JEC-OUT-23-801 17.11.2023

Xat mavzusi: Arxeologik tadqiqotlar tartibi haqida ma'lumot olish

**Y. G'ulomov nomidagi
Samarqand arxeologiya instituti direktori
M.M. Saidovga**

Sizning 2023-yil 18-avgustdagi №01-01/256 sonli javob xatingiz va oldingi fikr-mulohazalaringiz uchun Juru Energy sizga o'z minnatdorchiligini bildiradi.

Mazkur javob xatingizga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.07.2023 yildagi PQ-207-sonli va PQ-208-sonli qarorlariga binoan O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, “ACWA Power Company” kompaniyasi (Loyihalar investori) hamda “ACWA Power Sazagan Solar 1” va “ACWA Power Sazagan Solar 2” (Loyiha kompaniyalari) o'rtasida imzolangan investitsiya bitimlari doirasida Samarqand viloyatining Nurobod va Patdarg'om tumanlarida qurilishi rejalashtirilgan umumiy quvvati 1000 MVt bo'lgan uchta quyosh fotoelektr stansiyalari hamda ularning faoliyatini ta'minlashga xizmat qiluvchi 220 kV kuchlanishli uzunligi 70 km va 4.9 km bo'lgan elektr uzatish tarmoqlari, 500/220 kV sig'imga ega podstansiya va 334 MVt quvvatga ega elektr energiyasini saqlash tizimi Loyihalari uchun birlamchi arxeologik vizual nazorat-qidiruv ishlarini o'tkazish talab etilgan.

Ushbu talabdan kelib chiqqan holda, Sizdan, Loyihalar hududida amalga oshirilishi rejalashtirilgan qurilish ishlaridan boshlanishidan avval o'tkazilishi zarur bo'lgan tadqiqotlar bo'yicha quyidagi ma'lumotlarni taqdim etishingizni so'raymiz:

1. Javob xatiga muvofiq (№01-01/256) talab qilinuvchi birlamchi arxeologik vizual nazorat-qidiruv ishlari aynan qaysi maydonlarda o'tkazilishi kerakligi, va ushbu tadqiqotlarning tartibi haqida batafsil ma'lumot bersangiz.
2. Shuningdek, tadqiqot-izlanishlarni qachon olib borish kerakligi va ular qancha vaqt davom etishi haqida ma'lumot bersangiz.

Loyihalar obyektlarining joylashuvi va koordinatalari 1-2- va 3-ilovalarga muvofiq taqdim etilmoqda.

Yordamingiz uchun minnatdormiz va javobingizni kutib qolamiz.

Hurmat bilan,

Direktor

Jo'shqinbek Ismailov



1-ilova

Sazagan Solar 1 va Sazagan Solar 2 loyihalari obyektlarining joylashuvi

Tavsifi:

Qizil poligon - 100 MVt quvvatga ega quyosh fotoelektr stansiyasi (Samarqand viloyati Nurobod tumani)

Sariq poligon – 334 MVt quvvatga ega akkumulyator energiyasini saqlash tizimi (Samarqand viloyati Pastdarg‘om tumani)

Yashil poligon – 500/220 kV sig‘imga ega podstansiya (Samarqand viloyati Pastdarg‘om tumani)

Ko‘k liniya – 220 kV kuchlanishli 4.9 km havo elektr uzatish liniyasi



SHIMOLIY KENGLIK	SHARQIY UZUNLIK
100 MVt quvvatga ega quyosh fotoelektr stansiyasining koordinatalari	
39.542520°	66.670865°
39.547864°	66.671012°
39.551819°	66.703100°
39.542066°	66.702663°

SHIMOLIY KENGLIK	SHARQIY UZUNLIK
334 MVt quvvatga ega akkumulyator energiyasini saqlash tizimi koordinatalari	
39.575981°	66.735827°
39.577183°	66.739937°
39.572949°	66.741087°
39.571916°	66.737505°

SHIMOLIY KENGLIK	SHARQIY UZUNLIK
500/220 kV sig'imga ega podstansiya koordinatalari	
39.573171°	66.741593°
39.577404°	66.740478°
39.579869°	66.753116°
39.575549°	66.754244°

SHIMOLIY KENGLIK	SHARQIY UZUNLIK
220 kV kuchlanishli 4.9 km havo elektr uzatish liniyasi	
39.552967°	66.720966°
39.554152°	66.722909°
39.554855°	66.728136°
39.561485°	66.731433°
39.566199°	66.743192°


2-ilova

Sazagan Solar 1 va Sazagan Solar 2 loyihalari obyektlarining joylashuvi

Tavsif:

Qizil poligon - 400 MVt quvvatga ega quyosh fotoelektr stansiyasi (Samarqand viloyati Nurobod tumani)

Ko'k poligon - 500 MVt quvvatga ega quyosh fotoelektr stansiyasi (Samarqand viloyati Nurobod tumani)



SHIMOLIY KENGLIK	SHARQIY UZUNLIK
400 MVt quvvatga ega quyosh fotoelektr stansiyasining koordinatalari	
39.440808°	65.964342°
39.461096°	65.963115°
39.463319°	65.986337°
39.430096°	65.993754°

SHIMOLIY KENGLIK	SHARQIY UZUNLIK
500 MVt quvvatga ega quyosh fotoelektr stansiyasining koordinatalari	
39.429051°	65.922674°
39.442097°	65.970488°
39.424449°	65.971549°
39.418855°	65.952850°
39.409588°	65.958201°
39.400537°	65.942792°

3-ilova

Sazagan Solar 1 va Sazagan Solar 2 loyihalari obyektlarining faoliyatini ta'minlashga xizmat qiluvchi 220 kV kuchlanishli uzunligi 70 km bo'lgan ikkita yonma-yon elektr uzatish tarmoqlarining joylashuvi

Tavsif:

Qizil liniya - 220 kV kuchlanishli uzunligi 70 km bo'lgan ikkita yonma-yon elektr uzatish tarmoqlari (Samarqand viloyati Nurobod tumani)

Qizg'ish liniya – 500 kV kuchlanishli 350 km uzunlikdagi havo elektr uzatish liniyasi



NORTHING	EASTING
220 kV kuchlanishli uzunligi 70 km bo'lgan ikkita yonma-yon elektr uzatish tarmoqlarining koordinatalari	
39.427089°	65.974595°
65.974595°	39.426936°
39.426936°	65.974561°
65.974561°	39.427089°



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TOG'-KON SANOATI VA GEOLOGIYA VAZIRLIGI
«DAVLAT GEOLOGIYA AXBOROT MARKAZI» DAVLAT MUASSASASI

100060, Toshkent sh. T.Shevchenko-11-a Tel. (+99871) 256-09-31; Fax 256-07-86,
Web-sayt: <https://ggic.uz> Elektron pochta: geomarkaz@uzgeolcom.uz E-XAT: gicenter@exat.uz

2023 yil "7" 08 14-10209 - son

“Juru Energy Consulting” MCHJ
direktori J.Ismailovga


musxasi: **Tog'-kon sanoati va**
geologiya vazirligiga

“Juru Energy Consulting” MCHJning 2023 yil 21 iyuldagi JEC-OUT-23-304-sonli xatingiz "Davlat geologiya axborot markazi" DM mutaxassislari tomonidan o'rganib chiqilib, murojatda keltirilgan quyosh bateriyalari uchun o'tayotgan elektr simlar “Восточный Аргон” uran istiqbolli maydoni, “Sazagan-1” va “Agalik-Sazaganskoe (1984)” qurilish qumlari koni bo'ylab kesib o'tayotganligini ma'lum qilamiz.

Ilova: 1-varaqda

Direktor o'rinbosari

A.A. Varisov



Agalik-Sazaganskoe (1984)

Sazagan-1

Восточный Аргон

New Samarikand-1 Phase 2 (800 Ha)
2 (500MW) pooling station (7 Ha) - EIF
4 Ha

500/220KV New Nurobod Substation (54.5 Ha)
500KV Wh New Samarikand-1 Ph

A378
Image © 2023 Airbus
Image © 2023 CNES/Airbus



2023 yil. "14" oktabr

201713-son

“JURU ENERGY CONSULTING”

масъулияти чекланган жамият директори
Ж.Исмаиловга

Санитария-эпидемиологик осойишталик ва жамоат саломатлиги қўмитаси Сизнинг 2023 йил 12 сентябрдаги JEC-OUT-23-504-сон хатингиз бўйича қуйидагиларни маълум қилади.

“Юқори кучланишдаги электр узатиш тармоқлари яқинида яшовчи аҳолини ҳавфсизлигини таъминлаш бўйича санитария қоидалари ва меъёрлари тўғрисида”ги 0236-07-сон санитария қоидалари, нормалари ва гигиена нормативларида (СанҚваН) электр узатиш тармоқларининг қувватини ҳисобга олган ҳолда санитария-ҳимоя зонаси белгиланган, хатингизда ва унга илова қилинган ҳужжатлар бўйича Самарқанд вилояти Нуробод тунида қуввати 500 MVt бўлган қуёш фотоэлектр иншоотининг ички подстанция таркибидаги кучлантирувчи трансформаторлар ва тармоқ уланиш ускуналарининг максимал кучланиши 220 кV бўлишини билдирилган, шу сабабли 0236-07-сон СанҚваНда белгиланган электр майдони кучланиши аҳоли яшайдиган бино ва иншоотларда 0,5 кВ/м., аҳоли яшаш ҳудудларида 1,0 кВ/м, магнит майдони кучланиши аҳоли яшаш жойларида 80 А/м (100 мкТл) юқори бўлмаслиги ҳисобга олган ҳолда мазкур қуёш фотоэлектр иншоот учун 50 метрлик санитария-ҳимоя зонаси белгиланиши мумкинлигини билдирамыз.

**Раиснинг биринчи
ўринбосари**



Н. Атабеков



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI HUZURIDAGI
SANITARIYA-EPIDEMIOLOGIK OSOYISHTALIK
VA JAMOAT SALOMATLIGI QO‘MITASI
SANITARY-EPIDEMIOLOGICAL WELFARE AND PUBLIC HEALTH COMMITTEE
UNDER THE MINISTRY OF HEALTH OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

100097, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Buyudkor ko‘chasi, 46-uy
78-888-01-01 (010), 78-888-01-01 (050)
sanepidcommittee@sanepid.uz
sanepidxizmat@exat.uz
www.sanepid.uz, t.me/sanepidcommittee

2023 yil. "14" oktabr

201713-son

“JURU ENERGY CONSULTING”
масъулияти чекланган жамият директори
Ж.Исмаиловга

Санитария-эпидемиологик осойишталик ва жамоат саломатлиги қўмитаси Сизнинг 2023 йил 12 сентябрдаги JEC-OUT-23-504-сон хатингиз бўйича куйидагиларни маълум қилади.

“Юқори кучланишдаги электр узатиш тармоқлари яқинида яшовчи аҳолини ҳавфсизлигини таъминлаш бўйича санитария қоидалари ва меъёрлари тўғрисида”ги 0236-07-сон санитария қоидалари, нормалари ва гигиена нормативларида (СанҚваН) электр узатиш тармоқларининг қувватини ҳисобга олган ҳолда санитария-химия зонаси белгиланган, хатингизда ва унга илова қилинган хужжатлар бўйича Самарқанд вилояти Нуробод тунида қуввати 500 MVt бўлган қуёш фотоэлектр иншоотининг ички подстанция таркибидаги кучлантирувчи трансформаторлар ва тармоқ уланиш ускуналарининг максимал кучланиши 220 кV бўлишини билдирилган, шу сабабли 0236-07-сон СанҚваНда белгиланган электр майдони кучланиши аҳоли яшайдиган бино ва иншоотларда 0,5 кВ/м., аҳоли яшаш ҳудудларида 1,0 кВ/м, магнит майдони кучланиши аҳоли яшаш жойларида 80 А/м (100 мкТл) юқори бўлмаслиги ҳисобга олган ҳолда мазкур қуёш фотоэлектр иншоот учун 50 метрлик санитария-химия зонаси белгиланиши мумкинлигини билдираимиз.

Раиснинг биринчи
ўринбосари



Н. Атабеков

Unofficial translation

14 October, 2023

No-201713

**To J. Ismailov, director of
"JURU ENERGY CONSULTING" LLC**

The Sanitary-Epidemiological Peace and Public Health Committee informs you of the following regarding your letter dated September 12, 2023, No. JEC-OUT-23-504.

In the sanitary rules, norms and hygiene regulations (SanPin) No. 0236-07 "On sanitary rules and standards for ensuring the safety of residents living near high-voltage power transmission networks" a sanitary protection zone is defined taking into account the voltage of overhead transmission lines. According to your letter and to the attached documents, the maximum voltage of the power transformers and network connection equipment in the internal substation of the solar photovoltaic facility with a capacity of 500 MW in the Nurabad district of the Samarkand region will be 220 kV, therefore, the electric field voltage specified in SanPin No. 0236-07 is 5 kV/m. is for residential buildings and structures., 1.0 kV/m for residential areas, and taking into account that the magnetic field voltage is not higher than 80 A/m (100 μ Tl) for residential areas, we inform that a 50-meter sanitary protection zone can be established for this solar photovoltaic plant.

First Deputy Head

[QR-code]

N. Atabekov



2023 yil. "14" oktabr

201713-son

“JURU ENERGY CONSULTING”

масъулияти чекланган жамият директори
Ж.Исмаиловга

Санитария-эпидемиологик осойишталик ва жамоат саломатлиги қўмитаси Сизнинг 2023 йил 12 сентябрдаги JEC-OUT-23-504-сон хатингиз бўйича қуйидагиларни маълум қилади.

“Юқори кучланишдаги электр узатиш тармоқлари яқинида яшовчи аҳолини ҳавфсизлигини таъминлаш бўйича санитария қоидалари ва меъёрлари тўғрисида”ги 0236-07-сон санитария қоидалари, нормалари ва гигиена нормативларида (СанҚваН) электр узатиш тармоқларининг қувватини ҳисобга олган ҳолда санитария-ҳимоя зонаси белгиланган, хатингизда ва унга илова қилинган ҳужжатлар бўйича Самарқанд вилояти Нуробод тунида қуввати 500 MVt бўлган қуёш фотоэлектр иншоотининг ички подстанция таркибидаги кучлантирувчи трансформаторлар ва тармоқ уланиш ускуналарининг максимал кучланиши 220 кV бўлишини билдирилган, шу сабабли 0236-07-сон СанҚваНда белгиланган электр майдони кучланиши аҳоли яшайдиган бино ва иншоотларда 0,5 кВ/м., аҳоли яшаш ҳудудларида 1,0 кВ/м, магнит майдони кучланиши аҳоли яшаш жойларида 80 А/м (100 мкТл) юқори бўлмаслиги ҳисобга олган ҳолда мазкур қуёш фотоэлектр иншоот учун 50 метрлик санитария-ҳимоя зонаси белгиланиши мумкинлигини билдираимиз.

Раиснинг биринчи
ўринбосари



Н. Атабеков



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIY MEROS AGENTLIGI
Y. G‘ULOMOV NOMIDAGI SAMARQAND ARXELOGIYA INSTITUTI
SAMARKAND ARCHAEOLOGICAL INSTITUTE NAMED Y. GULOMOV
AGENCY OF CULTURAL HERITAGE OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN
140151, Samarqand shahar, V. Abdullayev ko‘chasi, 3-uy. Telefon: (+998 66) 232-27-75
E-mail: samarkandai1970@gmail.com, sai1970@exat.uz

18/ 08/ 2023 yil

01-01/256- sonli

**Samarqand viloyati Madaniy meros
boshqarmasi boshlig‘i B. Shaymatovga**

Nusxasi

**OOO “Juru Energy Consulting”
direktori J. Ismailovga**

Sizning 2023 yil 31-iyuldagi №01-04/912-son xatingizga asosan quyidagilarni ma‘lum qilamiz.

OOO “Juru Energy Consulting” tomonidan Samarqand viloyati Nurobod va Pastdarg‘om tumanlarida quyosh fotoelektr stansiyalari, energiya saqlash tizimini hamda uning faoliyatini ta‘minlashga xizmat qiluvchi podstansiya qurish investitsiya loyihasi rejalashtirilgan maydoni hududlari va undan 500 m radiusda joylashgan loyiha ta‘siri ostida bo‘lishi mumkin bo‘lgan arxeologik va madaniy meros ob‘ektlari to‘g‘risida ma‘lumot olish nazarda tutilgan.

Shu munosabat bilan ushbu hududlarda ilovada belgilab berilgan maydonlarda tarixiy ahamiyatga ega ob‘ektlar mavjud yoki mavjud emasligi haqida batafsil ma‘lumot olish uchun birlamchi arxeologik vizual nazorat-qidiruv ishlarini o‘tkazish talab etiladi.

Ushbu yo‘nalishdagi ishlar Samarqand arxeologiya institutining asosiy ish rejasiga kiritilmaganligi tufayli ushbu hududda xo‘jalik shartnomasini tuzgan holda, arxeologik tadqiqot ishlarini olib borishga tayyor ekanligini ma‘lum qiladi.

“Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari” to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga binoan ushbu javobdan norozi bo‘lgan taqdiringizda yuqori turuvchi organga murojaat etishingiz mumkinligini bildiramiz.

Samarqand arxeologiya instituti
direktori v.v.b.



M.M. Saidov

Bajaruvchi: X. Xoshimov
Tel: (93) 416-41-49

№ JEC-OUT-23-312 25.07.2023

Xat mavzusi: Loyiha hududida madaniy meros ob'ektlarining yo'qligi yoki mavjudligi va Samarqand viloyati madaniy meros boshqarmasi tadqiqotlari to'g'risida ma'lumot so'rash

Samarqand viloyati madaniy meros boshqarmasi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.07.2023 yildagi PQ-207-sonli "Samarqand viloyatining Nurobod tumanida quvvati 500 MVt bo'lgan quyosh fotoelektr stansiyasini, quvvati 334 MVt bo'lgan elektr energiyasini saqlash tizimini hamda uning faoliyatini ta'minlashga xizmat qiluvchi podstansiyani qurish (Sazagan Solar 1)" investitsiya loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi, hamda 04.07.2023 yildagi PQ-208-sonli "Samarqand viloyatining Nurobod tumanida quvvati 500 MVt bo'lgan quyosh fotoelektr stansiyasini, quvvati 334 MVt bo'lgan elektr energiyasini saqlash tizimini hamda uning faoliyatini ta'minlashga xizmat qiluvchi podstansiyani qurish (Sazagan Solar 2)" investitsiya loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarorlariga muvofiq, 2023-yilning 19-aprel kuni O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, "ACWA Power Company" kompaniyasi (Loyihalar investori) hamda "ACWA Power Sazagan Solar 1" va "ACWA Power Sazagan Solar 2" (Loyiha kompaniyalari) o'rtasida investitsiya bitimlari imzolandi.

Mazkur investitsiya bitimlari doirasida "ACWA Power Sazagan Solar 1" va "ACWA Power Sazagan Solar 2" kompaniyalari Samarqand viloyati Nurobod tumanida umumiy quvvati 1000 MVt bo'lgan uchta quyosh fotoelektr stansiyalarini hamda ularning faoliyatini ta'minlashga xizmat qiluvchi 220 kV kuchlanishli uzunligi 70 km bo'lgan elektr uzatish tarmoqlarini; Samarqand viloyati Pastdarg'om tumanida 500/220 kV sig'imga ega podstansiyasini va 334 MVt quvvatga ega elektr energiyasini saqlash tizimini; shuningdek, Buxoro viloyati Qorako'l tumanida 334 MVt quvvatga ega elektr energiyasini saqlash tizimini qurishni amalga oshirmoqda (loyihalar obyektlarining joylashuvi 1-ilova, 2-ilova va 3-ilovalarda keltirilgan).

Ushbu xat bilan shuni ma'lum qilamizki, "ACWA Power Sazagan Solar 1" va "ACWA Power Sazagan Solar 2" tashkilotlarining xalqaro maslahatchisi "5 Capitals" tashkiloti loyihalarning xorijiy investorlar va davlat tomonidan talab qilinuvchi ekologik va ijtimoiy ta'sirini baholashni amalga oshirishni "Juru Energy" tashkiloti zimmasiga topshirdi. Ekologik va ijtimoiy baholash doirasida "Juru Energy" loyihalar hududiga tegishli ekologik va ijtimoiy izlanishlar, ma'lumotlarni to'plash hamda tegishli tashkilotlar va mahalliy hokimiyat organlari bilan maslahatlashuvlar olib bormoqda.

Xususan, Juru Energy Sizdan Loyiha maydonidagi va undan 500 m radiusda joylashgan Loyiha ta'siri ostida bo'lishi mumkin bo'lgan moddiy yoki nomoddiy bo'lgan madaniy meros obyektlari va Samarqand viloyati madaniy meros boshqarmasi tadqiqotlari to'g'risida ma'lumot olishda amaliy yordam berishingizni so'raydi:

- 1.Loyiha hududida yoki uning 500 m radius ta'sir doirasida biron-bir moddiy yoki nomoddiy bo'lgan madaniy meros obyektlari mavjudmi?
- 2.Agar mavjud bo'lsa, moddiy yoki nomoddiy bo'lgan madaniy meros obyektlari (nomi, joylashuvi, ahamiyati va h.k.) haqida ma'lumot taqdim etishingizni so'raymiz.
- 3.Samarqand viloyati madaniy meros boshqarmasi tomonidan Loyiha ob'ekti va uning ob'ektlarida biron bir tadqiqot o'tkazildimi?
- 4.Loyiha hududida va uning ob'ektlarida Samarqand viloyati madaniy meros boshqarmasi tomonidan qurilish oldidan o'rganishlar talab qilinadimi?
- 5.Iltimos, Loyiha bo'yicha har qanday qo'shimcha izohlar taqdim eting.

Yordamingiz uchun minnatdormiz va javobingizni kutib qolamiz.

Hurmat bilan,

Direktor

Jushkinbek Ismailov

Ma'lumot uchun:
Dinara Rustami
d.rustami@juru.org
Mob.: +99897 888 60 11
Tel.: +99871 202 04 40
info@juru.org




1-ilova
Sazagan Solar 1 va Sazagan Solar 2 loyihalari obyektlarining joylashuvi

Tavsifi:

Qizil poligon - 100 MVt quvvatga ega quyosh fotoelektr stansiyasi (Samarqand viloyati Nurobod tumani)

Sariq poligon – 334 MVt quvvatga ega akkumulyator energiyasini saqlash tizimi (Samarqand viloyati Pastdarg‘om tumani)

Yashil poligon – 500/220 kV sig‘imga ega podstansiya (Samarqand viloyati Pastdarg‘om tumani)



SHIMOLIY KENGLIK	SHARQIY UZUNLIK
100 MVt quvvatga ega quyosh fotoelektr stansiyasining koordinatalari	
39.542520°	66.670865°
39.547864°	66.671012°
39.551819°	66.703100°
39.542066°	66.702663°

SHIMOLIY KENGLIK	SHARQIY UZUNLIK
334 MVt quvvatga ega akkumulyator energiyasini saqlash tizimi koordinatalari	
39.575981°	66.735827°
39.577183°	66.739937°
39.572949°	66.741087°
39.571916°	66.737505°


SHIMOLIY KENGLIK	SHARQIY UZUNLIK
500/220 kV sig‘imga ega podstansiya koordinatalari	
39.573171°	66.741593°
39.577404°	66.740478°
39.579869°	66.753116°
39.575549°	66.754244°

Sazagan Solar 1 va Sazagan Solar 2 loyihalari obyektlarining joylashuvi

Tavsif:

Qizil poligon - 400 MVt quvvatga ega quyosh fotoelektr stansiyasi (Samarqand viloyati Nurobod tumani)

Ko'k poligon - 500 MVt quvvatga ega quyosh fotoelektr stansiyasi (Samarqand viloyati Nurobod tumani)



SHIMOLIY KENGLIK	SHARQIY UZUNLIK
400 MVt quvvatga ega quyosh fotoelektr stansiyasining koordinatalari	
39.440808°	65.964342°
39.461096°	65.963115°
39.463319°	65.986337°
39.430096°	65.993754°

SHIMOLIY KENGLIK	SHARQIY UZUNLIK
500 MVt quvvatga ega quyosh fotoelektr stansiyasining koordinatalari	
39.429051°	65.922674°
39.442097°	65.970488°
39.424449°	65.971549°
39.418855°	65.952850°
39.409588°	65.958201°
39.400537°	65.942792°

Sazagan Solar 1 va Sazagan Solar 2 loyihalari obyektlarining faoliyatini ta'minlashga xizmat qiluvchi 220 kV kuchlanishli uzunligi 70 km bo'lgan ikkita yonma-yon elektr uzatish tarmoqlarining joylashuvi

Tavsif:

Qizg'ish liniya - 220 kV kuchlanishli uzunligi 70 km bo'lgan ikkita yonma-yon elektr uzatish tarmoqlari (Samarqand viloyati Nurobod tumani)

Qizil poligon - 400 MVt quvvatga ega quyosh fotoelektr stansiyasi (Samarqand viloyati Nurobod tumani)

Ko'k poligon - 500 MVt quvvatga ega quyosh fotoelektr stansiyasi (Samarqand viloyati Nurobod tumani)

Sariq poligon – 334 MVt quvvatga ega akkumulyator energiyasini saqlash tizimi (Samarqand viloyati Pastdarg'om tumani)

Yashil poligon – 500/220 kV sig'imga ega podstansiya (Samarqand viloyati Pastdarg'om tumani)



NORTHING	EASTING
220 kV kuchlanishli uzunligi 70 km bo'lgan ikkita yonma-yon elektr uzatish tarmoqlarining koordinatalari	
39.427089°	65.974595°
65.974595°	39.426936°
39.426936°	65.974561°
65.974561°	



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIY MEROS AGENTLIGI
SAMARQAND VILOYATI MADANIY MEROS BOSHQARMASI**

140100, Samarqand shahri, M.Ulug'bek ko'chasi, 35-uy. Telefon: 0(366) 233-11-82. svmbmb@exat.uz

23 31 07
20__ yil __ - _____

01-04/912

-son

Samarqand sh.

**Yahyo G'ulomov nomidagi
Samarqand arxeologiya institutiga**

Ikkinchi manzil:

**“Juru Energy Consulting”
Direktori Jushkinbek Rustamiga**

Sizning 2023-yil 25-iyudagi
JEC-OUT-23-312-sonli xatingizga:

Sizga ushbu orqali ma'lum qilamizkim, “Juru Energy Consulting” ning 2023-yil 25-iyuldagi JEC-OUT-23-312-sonli xatida Samarqand viloyatining Nurobod va Pastarg'om tumanlarida quyosh fotoelektr stansiyalari, energiya saqlash tizimi, podstansiya qurilishi rejalashtirilgan bo'lib sizdan ushbu hududda arxeologiya madaniy meros obyektlari mavjud yoki mavjud emasligi haqida ma'lumot taqdim etishingizni so'raymiz. Ilovada ushbu hududagi qurulish joylarining koordinatalari taqdim etilmoqda.

Ikkinchi manzilga: Sizning 2023-yil 25-iyuldagi JEC-OUT-23-312-sonli xatingizga Yahyo G'ulomov nomidagi Samarqand Arxeologiya institutining ushbu hudud haqida yozma ma'lumoti olinganidan so'ng qo'shimcha ma'lumot taqdim etamiz. Sizdan ushbu hududda arxeolog hulosasini olmasdan har qanday qurilish ishlarini olib borilmasligi so'raladi.

Ilova: ___ - varaqda

Boshqarma boshlig'i

B.Shaymatov

*Ijrochi: Q.A.Sayfiddinov
Tel.: 94.532-09-89*



27-04-12/2681 -son
2023y. "16" 08

“Juru Energy Consulting” MChJga

“O‘zbektelekom” AK
“TTT”, Samarqand va Buxoro
filiallariga

2023-yil 26-iyuldagi
JEC-OUT-23-321-son xatga oid

Samarqand viloyati, Nurobod tumani, Sazagan MFYda qurilishi rejalashtirilgan Quyosh fotoelektr stansiyasi hududida hamda Buxoro viloyati, Qorako‘l tumanida qurilishi rejalashtirilgan elektr energiyasini saqlash tizimini “Qorako‘l-1” podstansiyasi bilan bog‘lash hududida (M-37 avtomagistral yo‘li orqali) “O‘zbektelekom” AKning (keyingi o‘rinlarda - Kompaniya) “TTT”, Samarqand va Buxoro filiallari tasarrufidagi aloqa kabellari mavjudligi aniqlandi.

Mazkur aloqa kabellarini muhofazasini ta‘minlash bo‘yicha Kompaniyaning “TTT”, Samarqand va Buxoro filiallari tomonidan texnik shartlar ishlab chiqildi (ilova qilinadi).

Ushbu, ishlab chiqilgan texnik shartlarning asl nusxasini o‘rnatilgan tartibda olish uchun Kompaniyaning “TTT” (Toshkent shahri, Oloy ko‘chasi, 23-uy; tel: 71-233-73-50), Samarqand (Samarqand shahri, M. Ulugbek ko‘chasi, 92-uy; tel: 66-240-00-05) va Buxoro (Buxoro shahri, I. Mo‘minov ko‘chasi, 2a-uy; tel: 65-223-12-33) filiallariga murojaat qilinishi mumkin.

Shu bilan birga, aloqa kabellari va aloqa inshootlarini xavfsiz joyga ko‘chirish hamda ularni muhofazasini ta‘minlash bo‘yicha olib boriladigan ishlar O‘zbekiston Respublikasi “Telekommunikatsiyalar to‘g‘risida”gi qonunning 16-moddasi 6-bandiga asosan, ya‘ni “Aholi punktlari va ayrim binolar, yo‘llar, ko‘priklar va boshqa obyektlarni yangidan qurish, kengaytirish, qayta qurish, yangi yerlarni o‘zlashtirish, melioratsiya tizimlarini o‘zgartirish, foydali qazilmalarni qazib olish tufayli telekommunikatsiya vositalarini ko‘chirish yoki qayta qurish qurilishning buyurtmachisi tomonidan o‘z mablag‘lari hisobiga operatorlar va provayderlarning texnik shartlari bo‘yicha amalga oshiriladi” o‘rnatilgan tartibda amalga oshirilishi lozim.

Ilova 5 varaqda.

Boshqaruv raisining istiqbolli
rivojlantirish va innovatsiyalar
bo‘yicha o‘rinbosari



A. Arifdjanov

Bajardi: S.Yusupov
Tel.: 71-100-00-89



OOO "Juru Energy Consulting" tomonidan Samarqand viloyati Nurobod tumani Sazagan MFYda quvvati 100 MVt bo'lgan quyosh fotoelektr stansiyasi hamda Buxoro viloyati G'ijduvon va Peshko' tumanlarida quvvati 300-500 MWt shamol elektrostansiyasi loyiha va qurish ishlarini olib borish jarayonida magistral aloqa kabelni butligini ta'minlash bo'yicha

50- son TEXNIK SHART

1. Mazkur qurilish ishlari olib borish hududida "TTT" filiali ekspluatatsiyasida bo'lgan magistral aloqa kabeli o'tganligini inobatga olgan holda, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 15-maydagi 210-son qarori bilan tasdiqlangan "Telekommunikatsiya liniyalari va inshootlarini qo'riqlash qoidalari"ga muvofiq, aloqa kabel liniyasining har tomoniga 2 metr masofada uning "ximoya zonasi" deb belgilanganligi va ushbu ximoya zonasida har qanday turdagi yer qazish ishlari mexanizm ishlatilmasdan faqat qo'l kuchi yordamida texnik xodimlarimiz nazoratida amalga oshirilishi hamda aloqa kabelning ximoya zonasida og'ir yuk tashuvchi mashinalarni to'xtatib qo'yish, har-hil turdagi qurilish materiallarini saqlash va tushirish, inshootlar va tayanch ustunlarini o'rnatish, avtoyo'llarni yoki tuproqni tekislash, yer va asfalt qatlami satxini ko'tarish, chuqurlatish hamda beton to'siqlar qurish ishlari taqiqlanadi.

2. Mazkur qoidalarning 17-bandiga asosan, qurilish ishlarini olib borish jarayonida aloqa-liniya inshootlariga shikast yetkazilgan taqdirda, yetkazilgan moddiy zarar Ish olib boruvchi hisobidan to'liq qoplanishi, aloqa kommunikatsiyalarini ko'chirish va qayta qurish aloqa kommunikatsiyalarini inshootlarining egalari bilan kelishilgan texnik shartlarga asosan, ish olib boruvchi tashkilot mablag'lari hisobidan bajarilishi belgilab o'tilgan.

3. Qurilish ishlarini olib borish jarayonida aloqa liniya inshootlariga shikast yetkazilgan taqdirda, yetkazilgan moddiy zarar Ish olib boruvchi tomonidan to'liq va qisqa muddat ichida qoplanishi haqida kafolat xatining asl nusxasini "TTT" filialiga taqdim etish kerak.

4. Yer osti aloqa kabelini yo'nalishini o'zboshimchalik bilan aniqlashga urinish, ruxsatsiz kabel muhofaza zonasida ish olib borish qat'iy man etiladi.

5. Davlat rahbari selektori vaqtida va davlat ahamiyatiga bog'liq tadbirlarda taqiqlar tushishi natijasida OTALda barcha qurilish, kovlash, tekislash va x.k. jarayonlarida ishlar to'xtatilishi shart.

6. Kabel muhofaza zonasidagi ishlarni boshlashdan oldin ishchi-loyiha hujjatlari ishlab chiqilib, "TTT" filialining To'rtinchi va Beshinchi texnik bog'lamalari bilan kelishilsin.

7. Aloqa kabelining xavfsizligi, barqaror va uzluksiz ishlashini ta'minlash maqsadida, yuqori kuchlanishli elektr ustunlari o'rnatish zaruriyati tug'ilganda OTAL bilan kesishadigan joylarini kabel muhofaza xududidan 30 metr uzoqlikda olib o'tilishi hamda kunning yorug' vaqtida amalga oshirilishi talab etiladi:

- Barcha ishlar yakunlangandan so'ng, elektr liniyasining aloqa kabeli bilan kesishgan joyida ogohlantiruvchi ustunchalarni ogohlantirish belgilari bilan o'rnatilsin;

- aloqa kabeliga yaqin o'rnatilgan tayanch ustunida aloqa kabeligacha bo'lgan masofa to'g'risidagi yozuv tushurilgan belgi o'rnatilsin;

- aloqa kabel liniyasining himoya zonasida olib boriladigan barcha ishlarni aloqa liniyalarini qo'riqlash qoidalari va texnika xavfsizligi qoidalariga rioya etgan holda bajarilsin;

8. Aloqa kabelning muhofaza hududi yaqinida qurilish ishlari olib borish jarayonida RH 45-254-2014 me'yoriy hujjatning M.3 "Aloqa kabellarning qurilayotgan havo liniyalari bilan kesishish" hamda M.6 "Aloqa kabellari trassasining boshqa yer osti va yer usti inshootlari bilan yaqinlashishi" talablari asosida himoyalash inobatga olinishi talab etiladi.

9. OOO "Juru Energy Consulting" tomonidan Samarqand viloyati Nurobod tumani Sazagan MFYda quvvati 100 MVt bo'lgan quyosh fotoelektr stansiyasi qurilishining aloqa kabeli bilan parallel ravishda umumiy uzunligi ~2905 metr bo'lib, 1 ilovada keltirilgan birinchi rasmda rejalashtirilgan joyida "TTT" filiali To'rtinchi texnik bog'lamasi tassarrufidagi 2 dona (KMTOE va K-840A) yer osti magistral aloqa kabellari mavjudligini hisobga olib aloqa kabelidan 30 metr uzoqlikda qurilishi shart.

10. Buxoro viloyatining Qorako'l tumanida quriladigan elektr energiyasini saqlash tizimini Qorako'l-1 podstansiyasi bilan ulovchi yer osti tarmog'ining M37 avtomagistralini kesib o'tish joyida Beshinchi texnik bog'lama tassarrufidagi Buxoro TAB-Olot RRS uchastkasi 21-22 muftalari orasida va Jondor TTB-Qorako'l TTB uchastkasi 10-11 muftalari orasida aloqa magistrali mavjud kabeli bilan yer osti kuchlanish kabelining kesishadigan joyida aloqa kabeli ostidan kamida 0,5 m. to'g'ri burchak ostida o'tilsin. (aloqa kabelining chuqurligi ~1,2 m.)

- hamda Avariya holatida aloqa kabelining xavfsizligini ta'minlash maqsadida kuchlanish kabelini uzunligi 4 m. bo'lgan, diametrli-100 mm. azbest sementli qoplama-quvur (kojux) bilan himoyalansin. (RH-45-254:2014 me'yoriy hujjatga asosan).

11. Ish boshlashdan 3 kun oldin barcha ishlar "TTT" filiali To'rtinchi va Beshinchi texnik bog'lamasi bilan kelishib, Aloqa kabelining himoya zonasidagi barcha ishlar qo'l kuchi yordamida, texnik ekspluatatsiya qoidalari, liniya-kabel xo'jaligi muhofazasi qoidalari hamda texnika xavfsizligi qoidalarini hisobga olgan holda, bog'lama vakillarining ishtirokida amalga oshirilishi shart.

12. Barcha ishlar yakunlangandan so'ng aloqa kabelining kuchlanish kabeli bilan kesishgan joyida 1 donadan temirbeton ustuncha va ogohlantirish belgisi o'rnatilsin.

8. Joyidagi vaziyatdan kelib chiqqan holda, "TTT" filiali To'rtinchi va Beshinchi texnik bog'lama tomonidan mazkur Texnik shartga qo'shimchalar kiritilishi inobatga olinsin.

Texnik shartni amal qilish muddati 01.09.2024-yil.

Murojaat uchun manzil:

4-Texnik bog'lama Samarqand viloyati Bulung'ur tumani Samarqand ko'chasi №18 uy. Tel: 1133, 99-599-99-00, 599-01-66, 240-08-33, 66.240-08-40.

5-texnik bog'lama KU boshlig'i Sh.Usmonov. tel. (99) 732-50-06
Buxoro sh. G'ijduvon ko'chasi 69-uy.
Tel: 1133, (65) 221-93-72 (navbatchi)
(99) 707-17-43, (99) 732-50-13 (8:00-17:00).

Direktorning birinchi o'rinbosari

LKX xizmati boshlig'i

G'. Ro'zimatov

U. Sulaymonov



UZTELECOM

O'ZBEKTELEKOM AKSIYADORLIK KOMPANIYASI

BUXORO FILIALI

200100, Buxoro sh., I. Mo'minov ko'chasi, 2A uy buhtel@uztelecom.uz

(+998 65) 223 12 33 (+998 65) 223 12 33 uztelecom.uz



Texnik shart № 69

10.08.2023-yil

Tashkilot nomi: "Juru Energy Consulitng" MCHJ (*Kompaniyaning 2023-yil 27-iyuldagi DOC-110042-sonli topshirig'iga asosan*)

1. "Juru Energy Consulitng" MCHJ tomonidan Qorako'l tumani M-37 avtomagistral yo'li bo'yida qurilishi rejalashtirilgan "Energiya saqlash tizimi" obyekti hududida Qorako'l tuman telekommunikatsiya bog'lamasi va Sayyot qishloq telefon tarmog'ini bog'lovchi zona ichi yer osti aloqa kabellari mavjudligini inobatga olib, "O'zbektelekom" AK Buxoro filiali mas'ul xodimlari nazoratida ishlarni boshlash talab etiladi.

2. Yuqori kuchlanishli elektr kabelini yer ostidan o'tkazishda aloqa kabeli bilan kesishadigan joylarda elektr kabeli va aloqa kabeli orasidagi masofa kamida 0,7 metr masofani tashkil etishi hamda mazkur joylarda elektr kabelini uzunligi 4 metr bo'lgan 100 mm. diametrli azbest sementli qoplama-quvur (kojux) bilan himoyalaniishi inobatga olinsin (RH-45-254:2014 me'yoriy hujjatga asosan).

3. Aloqa kabelining himoya zonasidagi barcha ishlar qo'l kuchi yordamida, texnik ekspluatatsiya qoidalari, liniya-kabel xo'jaligi muhofazasi qoidalari hamda texnika xavfsizligi qoidalari inobatga olinsin.

4. Yer osti kanalizatsiyasini qurish loyihalashtirish, har qanday qurilish-montaj ishlarini amalga oshirish, mexanizmlar yordamida yer qazish va tekislash jarayonida yer osti aloqa tarmog'i trassasida 4 metr (aloqa trassasining har ikki tomonga 2 metrdan) himoya zonasini inobatga olinsin. (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 15-maydagi 210-sonli qarori bilan tasdiqlangan Aloqa tarmoqlarini himoya qilish qoidasidan)

5. "Telekommunikatsiya liniyalari va inshootlarini qo'riqlash Qoidalari" ning 17-bandiga asosan ish bajarish jarayonida kommunikatsiyalarga keltirilgan moddiy zarar ish olib boruvchi tomonidan to'liq qoplanishi ko'zda tutilsin.

6. Qurilish ishlari jarayonida aloqa liniyalarini ko'chirish zarurati tug'ilganda, Siz tomoningizdan yozma xati orqali murojaat qilinishi hamda

ko'chirish ishlari bo'yicha texnik imkoniyatlar o'rganib chiqilib, o'rnatilgan tartibda tegishli ishlar bajarilishi inobatga olinsin.

7. Obyekt hududida "Enter Engineering" Pte.LTD Kompaniyasiga tegishli optik tolali aloqa kabellari mavjudligini inobatga olib, mazkur tashkilotdan tegishli xulosalar olish maqsadga muvofiq.

7. Ushbu texnik shart ishlarni boshlash va ekspluatatsiyaga qabul qilish uchun asos emas.

8. Texnik shart muddati 2024-yil 1-sentabr kuniga qadar amal qiladi.

Texnik masalalar bo'yicha
direktor o'rinbosari



Sh. Voxidov



Ushbu texnik shart, ishlab chiqarish va ekspluatatsiyaga qabul qilish uchun asos emas

“Juru Energy Consulting” MChJ
direktori J. Ismailovga

Samarqand viloyati Nurobod tuman Sazag'an qishlog'ida yuqori kuchlanishli elektr tarmog'ini tashkil qilish jarayonida liniya-kabel xo'jaligiga shikast yetkazilmasligi uchun

61/01-sonli Texnik shart

1. Samarqand viloyati Nurobod tuman Sazag'an qishlog'ida yuqori kuchlanishli elektr tarmog'ini tashkil qilish jarayonida “Aloqa vositalari”ning qurilish qoidalariga rioya qilish talab etiladi.

1.1. “O'zbektelekom” AK Samarqand filialiga tegishli aloqa kabellari borligini inobatga olib (TTT filiali aloqa kabellari bilan bir yo'nalishda) qurilish montaj ishlarini olib borishda Vazirlar mahkamasining 1998-yil 15-maydagi 210-son qarori “Telekommunikatsiya liniyalari va inshootlatini muhofaza qilish qoidalariga”ga asosan aloqa inshootlarini himoya hududi 4 metr saqlash (aloqa liniyasining har tomonidan 2 metrdan masofada saqlanishi) talab etiladi.

1.2. Qurilish ishlarini olib borish uchun ishlab chiqilgan loyiha xujjatlarini “O'zbektelekom” AK Samarqand filialining ko'rigidan o'tkazish shart.

1.3. Yer qazish ishlari olib borishdan oldin “O'zbektelekom” AK Samarqand filialidan mutaxassis chaqirilishi shart.

Bog'lanish uchun: Samarqand filiali dispetcherlik xizmati (66) 231-02-39,

Nurobod tuman telekommunikatsiya bog'lamasini (99) 776-86-10, (99) 312-13-90.

2. Ish boshlanguniga qadar “O'zbektelekom” AK “Telekommunikatsiya Transport Tarmog'i” filialining To'rtinchi texnik bog'lamasiga tegishli aloqa kabellari borligini inobatga olib To'rtinchi texnik bog'lamasidan texnik shart olish talab etiladi.

Bog'lanish uchun: To'rtinchi texnik bog'lamasini dispetcherlik xizmati: (66) 240-08-33,

To'rtinchi texnik bog'lamasini liniya-kabel xo'jaligi mas'ul xodimi: (99) 599-01-66.

– Iste'molchi va loyiha korxonalarini texnik shartlarini bajarishlari shart.

– Texnik tavsiyanomadan chetlashish faqatgina texnik shart bergan korxonaning ruxsati asosida bajarilishi kerak.

– Qurilish loyihasi “O'zbektelekom” AK Samarqand filialining ko'rigidan o'tmasdan qurilish montaj ishlari boshlash taqiqlanadi.

– Haqiqiylik muddati: 14.08.2024-yil.

Direktor o'rinbosari

Z. Xudayberganov

TTR va EQ bo'limi bosh mutaxassisi

B. Ubaydullayev